Zamonaviy ta'lim tizimida "Aralash ta'lim (Blended Learning)" texnologiyasining joriy etilishi.....	991
<i>Sh. D. Ablakulov</i>	
Ko'paytirish amalini o'rgatishga zamonaviy yondashuv (suv vositasida)	995
<i>Ismoilov Bobur Toxirovich</i>	
WEB dasturlash fanining ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari.....	1000
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeich, Abdullayev Javohirbek Zokirjon o'g'li</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodik xususiyatlari	1005
<i>Sattorova Go'zalxon Mamadaminovna</i>	
Reflective Technologies of Development of Sanogen Thinking in Students.....	1010
<i>Ismailov Murodulla Kahramonovich</i>	
Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	1014
<i>Avazova Farangiz Ixtiyor qizi</i>	

Surxon adabiy maktabi: Usmon Azim va Shafoat Rahmatulla Termiziy ijodi.....	1022
<i>Xolboyeva Dilafruz Xayrulla qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy mazmundagi masalalar asosida ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish	1026
<i>Ahmadjonova Intizor Iqboljon qizi, Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>	
Tarbiyalanuvchilarda miqdor va son tushunchalariga doir ta'limiy o'yin faoliyatlari jarayonida ixtiyoriy diqqatini shakllantirish.....	1030
<i>Quysinova Shahlo Nasim qizi</i>	
Alaliyali bolalar bilan logopedik ishning tizimli yondashuvi	1035
<i>Irkinova Irodaxon Temirovna</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarni eshitish va talaffuzga paralel ravishda rivojlantirish: integratsiyalashgan yondashuv	1040
<i>Raximova Mahliyo Xasanboy qizi</i>	
Gender xususiyatlarning ijtimoiy shartlangan ko'rinishlari	1043
<i>Yulduzxon Mirzaaxmedova</i>	
Oliy ta'limda muhandislik fizikasi fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish	1047
<i>Butayeva Nargiza Buriboyovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida shakllantirish modeli.....	1051
<i>Askarova Zilolaxon Nurmuhamadovna</i>	
Sun'iy intellekt asosida ta'limni individuallashtirishning pedagogik asoslari	1055
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Toxirova Muattarxon Isroil qizi</i>	
Matematik fizika tenglamalari fanini o'qitishda yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limining o'rni va ahamiyati	1060
<i>Murzambetova Mexriban Begdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasi	1064
<i>Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi</i>	
O'tkir Hoshimovning realistik xarakter yaratish mahorati.....	1070
<i>Nortoijiyev Muxammad</i>	
Bolalar adabiyoti asarlarini tahlil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari	1073
<i>Xujamqulova Iroda Faxriddinovna</i>	
O'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bolalarda bilish faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati	1078
<i>Achilov Obid Muzrobovich</i>	
Maktab o'quvchilarida mustaqil ta'limni tashkil etish, o'tkazish va baholash metodikasi.....	1083
<i>Musayeva Gulnoza Yo'ldosh qizi</i>	
Bo'lg'usi pedagoglarda estetik kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	1087
<i>Bozorova O'g'iloy Komilovna</i>	
"Taskari teorema" innovatsion pedagogik texnologiyasi	1093
<i>Yandasheva Sevara Ne'matjonovna</i>	
Technologies for Forming Students' Communicative Competence Based on Interdisciplinary Integration.....	1096
<i>Umida Eshmirzayevna Mamatkulova</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda elementar matematikaning o'rni	1101
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</i>	
Zamonaviy muhandisni tayyorlash texnologiyasi – kasbiy kompetentlikni shakllantirish imperativi sifatida	1105
<i>Axmedova Aziza Shokir qizi</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	1110
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish	1114
<i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>	
O'quvchilarni tayanch hayotiy kompetensiyalar orqali iqtisodiy bilimlarini shakllantirish	1118
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda interfaol ta'lim metodlarining pedagogik samaradorligi.....	1123
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Oripova Shaxzodaxon Otamurod qizi</i>	



Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy tarbiya faoliyatiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari.....	1127
Rahmatjonzoda Ahrorjon Ahmad o'g'li	
Ta'lim transformatsiyasi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida	1130
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda oila va maktab hamkorligi	1135
Mamadaliyeva Gavxarxon Asiljonovna	
Pedagogik amaliyotda pedagogik mahoratni rivojlantirishning nazariy–amaliy asoslari	1139
Yunusova Feruza Maxamadolim qizi	
O'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik aspektlari	1143
Hasanova Gulmira Hoshimjanovna	
Maktab yoshidagi o'quvchilarga she'riy asarlarni o'qitishga doir ayrim metodlar (O. Matjonning "Orolga yordam" she'ri asosida).....	1147
Alxiyeva Sitara Raximqul qizi	
Sport travmalaridan keyingi reabilitatsiyada jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	1150
Begimqulov Oltiboy Jo'rayevich	
Demografik vaziyatning mohiyati va tarkibi	1155
Bomurodov Sanjar Bkmurodovich	
Problems of Developing the Terminology System of the Uzbek Language.....	1159
Dilnoza Yuldasheva Bkmurodovna	
Tarbiya darslarida guruh va jamoaviy o'yinlar orqali muloqot madaniyatini shakllantirish	1163
Menlibayeva Azima Oralbayevna	
Raqamlashtirilgan ta'limda talabalarni tanqidiy fikrlash asosida kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari.....	1166
Nuritdinova Xurshida Narpulatovna	
Raqamli ta'lim vositalarining boshlang'ich ta'limdagi afzalliklari	1169
Sattorova Mohira	
The Importance of Teaching Physics Through Modern Educational Trends	1172
Sharofutdinov Ikboljon Usmonjon ugli	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy rivojlanishida gender rollar nazariyasining amaliy ahamiyati	1176
Tolipova Noilaxon Nodir qizi	
Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish	1183
Umida Bovanova Abdurahobovna, Bo'riboeva Navbahor Faxriddinov	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari	1186
Xaqberdiyeva Sh. T.	
Ingliz tili darslarida kreativlikni oshirishda kuzatiladigan muammolar va ularni yechishga doir pedagogik yondashuvlar.....	1190
Yusupov Lutfullo Sayitturayevich	
Informatika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari ("Axborotlarni kodlash" mavzusi misolida).....	1194
Temirova Gulbahor G'ulomovna, Yusupova Nodira Nurdinova	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish	1201
Zokirova Sohila Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari	1204
Astanakulova Manzura Buribayevna	
Milliy qadriyatlar vositasida o'quvchilarni chet tili o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi.....	1209
Toshturdiyeva Xurshida Erkinovna, Elmurodova Dildora Erkinovna	
Talabalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishda individual yondashuvning nazariy asoslari	1212
Islomov Eldor Yusupovich	
Pedagogik jarayon subyektlarining intellektual imkoniyatlarini diagnostik o'rganish va korreksiyalash metodikasini takomillashtirish	1215
Sattorova Malikaxon Abdug'affor qizi	
Языковые изменения в русском языке XXI века: исследование новых слов, сленга, интернет-коммуникации, влияния англицизмов и глобализации на современный русский язык	1220
Марупова Дилфуза Давроновна	

Ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish.....	1226
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Bahodirova Mohinur Azamat qizi</i>	
Buxoro xonlariga pir bo'lgan Dahbediylar.....	1231
<i>Kandaxarov Anvarjon Xasanovich</i>	
Formativ baholash natijalaridan ta'lim sifatini yaxshilashda foydalanish.....	1236
<i>Mamatova Fazilat Ixtiyorovna, Jabborova Dilshoda Xolmamat qizi</i>	
Современные тенденции развития в подготовке юных волейболистов с использованием инновационных технологий.....	1239
<i>Имомов Сирожиддин Илхомович</i>	
Современное развитие гандбола, основы технико-тактической подготовки и методика обучения в кружках.....	1244
<i>Оринов Облакул Жумаевич</i>	
Теоретико-методические основы баскетбола и современные тенденции его развития.....	1248
<i>Ачилов Ойбек Хакимович</i>	
O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi: holat, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	1252
<i>Berdiyev Baxtiyor Sodiqovich, Raximjonova Maxliyon Zokirjon qizi</i>	
Sun'iy intellekt asosida talabalarining dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirish.....	1257
<i>Saidov Usmon Bahron o'g'li</i>	
Современные методы устранения заикания у подростков.....	1260
<i>Абдухалимова Муниса Абдурашид кизи</i>	
O'quvchilarda innovatsion yondashuv orqali ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning o'ziga xos xususiyatlari.....	1264
<i>Xamidova Shaxnoza Nuraliyevna</i>	
Iqtidorli futbolchilarni tanlab olishning nazariy asoslari.....	1268
<i>Salayev Taxirbek Kamiljanovich, Atajanov Adilbek Yuldashevich</i>	
Sun'iy intellektning talabalarda analitik fikrlashga ta'siri.....	1274
<i>Abduhakimova Muslima Bahodir qizi</i>	
Raqamli interpretatsiya: vizual tahlil kompetensiyasini rivojlantirishda immersiv texnologiya va kognitiv yuklanishni optimallashtirish.....	1277
<i>Anvarxo'jayeva Dilinur Otabek qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektidan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish.....	1282
<i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>	
Ekologik turizmning tabiatga ma'naviy-estetik munosabatni rivojlantirish imkoniyatlari.....	1286
<i>Aymatov A. Q., Turayeva Dildora Shuhratovna</i>	
O'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari.....	1289
<i>Begmatova Nasiba Safarbayevna</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni korrektsiyalashning pedagogik texnologiyasi.....	1293
<i>Boxodirova Gulasalxon Ibroximovna</i>	
Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish mashg'ulotlarida lotin va yunon terminlarining o'rni.....	1296
<i>Burxonova Guyaxon Gulomovna</i>	
Ta'lim jarayonlarida sinergetik kompetensiyalash orqali integrativ yondashuvni amalga oshirish.....	1300
<i>Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich</i>	
Montessori metodikasining tarixi, tamoyillari va ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitishdagi o'ziga xos usullari.....	1304
<i>Jo'raqulova Gulruh Murot qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish holati va muammolari.....	1307
<i>Karimov Ravshanbek Rizomatovich</i>	
Methodology for the Integrative Development of Students' Educational and Creative Activities in Teaching Fine Arts.....	1312
<i>Kurbanova Shohsanam Bakhodirjon kizi</i>	
Kurash sport turining jismoniy tarbiya tizimida tutgan o'rni va uning rivojlanish omillari.....	1315
<i>Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi, Akbarova Nasibaxon Abdumalik qizi</i>	
Kurash sport turining texnik-taktik rivojlanishi va uning jismoniy tarbiyadagi pedagogik ahamiyati.....	1319
<i>Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi, Eminjonova Zahro Dilmurodjon qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning intellektual qobiliyatini falsafiy bilimlar asosida rivojlantirish shakllari.....	1323
<i>Mamatqulova Shaxnoza O'ktam qizi</i>	



Using Debate, Role-Play, and Drama as Tools for Developing Oral Skills in English	1326
Menglibekov Reynazar Mukhammetkarim-uli	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida supervayzerlik qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik determinantlari	1329
Mirzayeva Muhayyo Ruziyevna	
Methodology for Developing Patriotic Education in Students Through Ideas of National Heroism	1334
Nomanova Ma'rifat Abdillayevna	
Shaxsda kasbiy tafakkur namoyon bo'lishining psixologik mexanizmlari	1337
Olimova Fotima Botirovna	
Interaktiv ta'lim muhitida talabalarning badiiy-kompozitsion didini shakllantirish pedagogik mexanizmlari (rangtasvir fani misolida)	1341
Omonqulova Dildora Xusniddin qizi	
Triz va kreativ pedagogika: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish	1348
Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Fayzullayeva Nazokat Uchqunovna	
O'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirish	1351
Qodirqulov Nodirbek Hamroqul o'g'li	
Bo'lajak muhandislarning loyihalash-konstruktorlik ko'nikmasini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari (muhandislik ta'lim yo'nalishlari misolida)	1355
Salomov Ilhom Salimovich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini PIRLS tizimi asosida baholashga o'rgatish	1359
Samidjonova Muxabbat Xoliqjonovna	
"Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ o'qitishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida	1362
Sobirova Mashxura Ubaydullayevna	
Sun'iy intellekt va simulyatsion o'yinlardan foydalanib iqtisodiy tafakkurni shakllantirish metodikasi	1365
Sodiqova Nigora Turayevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida virtual texnologiyalar vositasida axborot kompetentligini rivojlantirish tizimi	1368
Suvonqulova Aziza Abdurazzoq qizi	
Rahbarlarning psixologik farovonligi: oila-kasb muvozanati, oilaviy munosabat va kasbiy qoniqishning o'zaro ta'sir mexanizmlari	1371
Teshayev Sobit Sodik o'g'li	
Tibbiy ta'limda refleksiv ko'nikmalar: O'zbekiston va dunyo tajribasi	1374
Toshmatova Moxizatxon Inomidin qizi	
Boshlang'ich tayyorganlik bosqichidagi yosh voleybolchilarning mashg'ulot jarayonini texnik va taktik nazorat qilish metodikasi	1377
Xakimov Saydullo Tulanboyevich	
Kadrlarni boshqarishda strategik va tezkor qarorlar uyg'unligini ta'minlashning tashkiliy-boshqaruv asoslari	1380
D. A. Xodjimatrova	
Jismoniy imkoniyatlari cheklangan yoshlar uchun sport va jismoniy faollikning ahamiyati	1385
Zafar Xudaykulov	
Raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlar asosida ta'lim samaradorligini oshirish	1388
Yusupova Munisa	
Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	1391
Zokirova Nargiza Akbarjonovna	
Til kompetentligining kognitiv tilshunoslik bilan aloqasi boshlang'ich sinflar misolida	1395
Zokirova Sohiba Muhtoralievna, Madazimova Muxlisa Abdurashid qizi	
Структура и основные характеристики креативности личности студентов педагогических вузов	1398
Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна	



BUXORO XONLARIGA PIR BO'LGAN DAHBEDIYLAR

Kandaxarov Anvarjon Xasanovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro xonligi davrida mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta ta'sirga ega bo'lgan Mahdumi A'zam Dahbediy va uning nabirasi Hazrat Xoja Hoshimning hayoti hamda faoliyati tarixiy manbalar va keyingi tadqiqotlar asosida yoritilgan. Shuningdek, maqolada Shayboniy va Ashtarxoniylar hukmdorlarining o'zaro kurashlarida ushbu tasavvuf ulamolarining yordami va maslahatiga muhtoj bo'lgani, ularni pir sifatida e'zozlaganliklari haqidagi voqealar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qo'lyozmalar, agiografik asarlar, arxiv hujjatlari, Naqshbandiya shayxlari.

Abstract: This article examines the life and activities of Makhdumi Azam Dahbedi and his grandson Hazrat Khoja Hashim, who played a significant role in the socio-political affairs of the Bukhara Khanate. Based on historical sources and subsequent research, the study also highlights episodes in which the rulers of the Shaybani and Ashtar Khanates sought the assistance and guidance of these Sufi scholars during political conflicts and revered them as spiritual mentors (pirs).

Key words: manuscripts, hagiographic works, archival documents, Naqshbandi sheikhs.

Аннотация: В статье на основе исторических источников и последующих исследований раскрываются жизнь и деятельность Махдуми Аъзама Дахбеда и его внука Хазрата Ходжи Хашима, оказавших значительное влияние на общественно-политическую жизнь страны в период Бухарского ханства. Также анализируются случаи, когда правители Шейбанидского и Аштарханидского ханств нуждались в помощи и советах этих суфийских учёных в ходе междоусобных столкновений и почитали их как пиров.

Ключевые слова: рукописи, агиографические произведения, архивные документы, шейхи накшбандийского тариката.

KIRISH

Buxoro xonligi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida tasavvuf vakillarining o'rnini tadqiq etish O'zbekiston tarixining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu mavzuni o'rganish, avvalo, nazariy masalalarni aniqlab olishni talab qiladi. Nazariy yondashuvlar tasavvufning mohiyati, uning tarixiy rivojlanishi va jamiyat hayotiga ta'sirini chuqur tahlil qilishga yordam beradi. Mavzuni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilishda, asosan, tasavvufning kelib chiqishi va ilmiy asoslari to'g'risidagi manbalar hamda adabiyotlarni tahlil qilishga e'tibor qaratish lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hazrat Mahdumi A'zam Dahbediyning to'liq ismlari Sayid Ahmad Jaloliddin Kosoniy bo'lib, bu zot 1461-yil Farg'ona vodiysining Koson degan joyida tug'ilgan. Hazrat Mahdumi A'zam o'z davrining buyuk pir-murshidi bo'lib, tariqat saboqlarini Xoja Ahrori Valiyning shogirdlaridan Xoja Muhammad Qozidan olgan. Hazrat Mahdumi A'zam Naqshbandiya tariqatidagi buyuk pir-murshid, zamona hukmdorlarining ustoz va maslahatchisi bo'lishi bilan bir qatorda ilm-fan sohasida ham salmoqli ijod qilib, o'ttizdan ortiq kitob yozgan. Jumladan: "Asrorun nikoh", "Risolai samo'iyah", "Risolai vujudiyah", "Odobus solikin", "Odobus siddiqin", "Ganjnoma", "Risolai buqo'iyah", "Nasihatus solikin", "Sharhi savodil vajh", "Nafohat'us solikin", "Risolai zikr", "Risolai chahor kalom", "Silsilai siddiqin", "Mir'otus safo", "Me'rojul oshiqin", "Murshidul solikin", "Risolai Boburiyah", "Tanbehul ulamah", "Risolai fanoiyah", "Risolai ilmiyah" va boshqalar. Ushbu nodir asarlar bugungi kunda O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalar markazida saqlanmoqda¹.

¹ Қаранг: Нақшбандия тариқатига оид қўлёзмалар фихристи. Тошкент, 1993. –Б. 45-59.



Mahdumi A'zam Dahbediy to'g'risida XVI–XVIII asrlarga oid ko'plab tarixiy manbalarda va agiografik asarlarda ma'lumotlar keltiriladi. U kishining mamlakat ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga ta'siri, zamona hukmdorlari bilan o'zaro munosabatlari, avlod-ajadlari va tariqatdagi silsilalari batafsil bayon etiladi. Jumladan, “Tuhfat az zoi'rin” kitobida Hazrat Mahdumi A'zamning nasabnomalari ham berilgan: Hazrat Sayid Ahmad Mahdumi A'zam bin Sayid Jaloliddin bin Sayid Jamoliddin bin Sayid Burhoniddin bin Sayid Amir Majmun bin Sayid Burhoniddin Qilich bin Sayid Kamoliddin bin Sayid Jaloliddin bin Sayid Shoh Husayn bin Sayid Hasan bin Sayid Muhammad bin Sayid Ahmad bin Sayid Abdullo al-Afzal bin Sayid Abdullo al-Akmal bin Sayid Abu Tolib Hujjatulloh Sayid Muhammad Ali bin Sayid Imom Ali Muso ar-Rizo bin Sayid Imom Muso Kozim bin Hazrat Sayid Ja'fari Sodiq bin Hazrat Sayid Imom Muhammad Boqir bin Hazrat Imom Zaynulobidin bin Hazrat Imom Husayn bin Hazrat Amir-al-mu'minin Imom Ali (r.a.)².

Hazrat Mahdumi A'zam yozadilar: “Agar solik bu to'rt kalimaga amal etmasa, demak, uning binoi tariqati vayronidir: hush dar dam, nazar bar qadam, safar dar vatan, xilvat dar anjuman.” Chunonchi, Hazrati Odiyshon, maqbuli Hazrati Rahmon, muhabb va mahbubi qulubi darveshon Ubaydullohon ayturlar:

*Har lahza Vatan ichra safar qilg'umdur,
Yurmakda qadam uzra nazar qilg'umdur.
Xilvat tutubon anjuman ichra mudom,
Xilvatni g'urbatga guzap qilg'umdur.*

Orif bilan zohid orasidagi farq nedir? Orif bamisli quyosh, zohid bamisli oy. Oy tunni ravshan qilgay, quyosh esa ko'p buzruk bo'lib, kunni ravshan aylay. Orifeki Boyazid BastomiYga o'xshar – ul quyoshdir. Quyosh nurining harorati baland bo'lgani tufayli har kim ham ko'ra olmagan, ya'ni ko'rmoqdan murod tanimoqdur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi Buxoro xonlari va dahbediy pirlari o'rtasidagi tarixiy munosabatlarni yorituvchi yozma manbalar, qo'lyozmalar, tariqat silsilalariga oid asarlar, agiografik matnlar hamda XVI–XVIII asrlarga tegishli tarixiy yilnomalarni qiyosiy o'rganishga asoslanadi. Ma'lumotlar asosan “Muzakkiri ahhob”, “Tuhfat az-zoirin”, “Samariya”, “Tarixi Muqimxoniy” kabi manbalardan olinib, ularning mazmuni manbashunoslik yondashuvi orqali tahlil qilindi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlar – K. Kattaev, O. Suxareva kabi olimlarning ilmiy ishlari bilan solishtirma tahlil olib borildi. Manbalarda uchragan tarixiy voqealarning ishonchlilik darajasi ichki va tashqi tanqid asosida baholandi, faktlar o'rtasidagi uzviylik va takroriylik darajasi esa tematik tahlil yordamida aniqlanib, umumiy ilmiy xulosa chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hazrat Mahdumi A'zam Dahbediyga o'sha zamon sultonlari murid bo'lganlar. Jumladan, Buxoro hukmdori Ubaydullohon, shuningdek, Mirzo Bobur ham Hazrat pirlarga nihoyatda hurmat ko'rsatganlar. Ubaydullohon Hazrat Mir Arab va Hazrat Mahdumi A'zam Kosoniylarning muridi bo'lgan. Buxoro xoni Ubaydullohon hadis ilmini Mavlono Isfahoniy – ya'ni Hazrat Fazlulloh ibn Ruzbehon – dan, fiqh ilmini Mavlono Mahmud Azizon dan, qiroat ilmini esa Mavlono Yormuhammad qoridan o'rgangan. Shayboniy Ubaydullohon Hazrat Mahdumi A'zam Dahbediy uchun Buxorodagi qasrida maxsus xona qurdirgan. Xonning iltimosiga muvofiq Hazrat Dahbediy mana shu xona-da ma'lum muddat yashab, insonlarni to'g'ri yo'lga da'vat qilgan, xonga pandu-nasihatlarni bergan. “Muzakkiri ahhob”da yozilishicha, Ubaydullohon quyidagi ruboiyni Hazrat Mahdumi A'zamga yuborgan:

*Ahvoli nim, ey do'st, yake-du binam,
Har chiz ki binam, hama bo u binam.
Mustag'riqi “hu” chunon shudam dar hama hol,
“Hu” go'yam-u “hu” bishnavam-u “hu” binam.*

Mazmuni: Yaxshi-yomon ahvolimni, ey do'st, bir-ikki ko'raman. Nima ko'zimga tashlansa, unda Uni ko'raman. “Hu” zikriga shunchalik g'arq bo'lganmanki, faqat “hu” deyman, “hu”ni eshitaman, “hu”ni ko'raman³.

Mahdumi A'zam Dahbediyning hayoti, faoliyati va ijodiy meroslari haqida ko'plab tadqiqotlar olib borib, bir qancha ilmiy asarlar yaratgan olim Komilxon Kattaevning yozishicha, Muhammad Sodiq Qashqariy o'zining “Tazkirai Azizon” asarida Bobur Mirzoning Mahdumi A'zamga naqadar katta ixlos qo'yganini bildiradigan maktub va she'rini soddiq a'yonlaridan, qimmatbaho sovg'alar bilan birga yuborganini keltiradi. She'r:

2 Насир ад-Дин ал-Ханафи ал-Хасани ал-Бухари. Тухфат аз-заирин (“Подарок паломникам”). Автор перевода с таджикско-персидского, предисловия и комментариев: Халим Тураев. – Ташкент: “Splendid Idea” 2021. – С. 83.

3 Ҳасанхожа Нисорий. Музакири аҳбоб. Тошкент, А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б. 23.



*Darveshonro garchi na az xeshonem,
Lek az dilu jon mu'taqidi eshonem.
Dur ast biguy shohro az darvesh,
Shohem, vale banda-i darveshonem.*

Mazmuni: Har qancha darveshlar bilan qarindosh bo'lmasak-da, ammo dilu jonimiz bilan ularga e'tiqodimiz bor. Shoh bilan darvesh o'rtasida farq bo'lsa-da, biz shoh bo'lsak ham, darveshlarga bo'ysunuvchimiz⁴.

Buxorodagi Mahdumi A'zam guzar va ziyoratgohlari haqida O. A. Suxareva tadqiqotlarida keltirilishicha, Buxoro shahrida Mahdumi A'zam kvartali bo'lgan bo'lib, unda 30–40 ta xonadon yashagan. Aholisi tojikzabon bo'lib, asosan savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Ushbu kvartalda qadimiy masjid bo'lgan va uning qarshisida Chuchuk-Oyim nomli ikki qavatli madrasa mavjud bo'lgan⁵. Tadqiqotlarda mazkur joyda Mahdumi A'zamning qabri bo'lgani qayd etiladi. Biroq Mahdumi A'zamning qabri masalasida O. Suxareva ma'lumotlarida ozgina chalkashliklar borligini aytib o'tish lozim. Chunki ko'plab tarixiy manbalarda Hazratning qabri Samarqandning Dahbed mavzeida joylashganligi qayd etiladi yoki biror manbada avval Buxoroga dafn etilib, keyinchalik qabri Samarqandga ko'chirilgani haqida ma'lumot uchramaydi.

Abu Tohirxojaning "Samariya" kitobida quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: "949/1542-yilda 21-muharram kuni – dushanba, tush chog'ida – vafot etdi. O'likni tiriklik paytida ko'p bor zavq bilan o'tiradigan murit daraxti ostiga qo'yidilar. 'Qutbi olam raft vay'⁶ so'zi uning vafotining tarixidir. Samarqand shahri bilan Dahbed oralig'i bir tosh (8 chaqirim) masofadir. Yalangtosh Bahodir ham dahbedlar silsilasiga mansub bo'lib, uning qabri ham Mahdumi A'zamning oyoq ostidagi sufa-da joylashgan"⁷.

Sharafiddin Roqimiy "Tarixi tomm" kitobida ham Mahdumi A'zamning vafoti haqidagi baytlarni keltiradi:

*Orif k-o dar haqiqot muqtadoi asr bud,
Raft az rohi tariqat ahli dilro rahnamoy.
Bistu yak bud az muharram ruzi shanbe vaqti chosht,
Murghi ruhash kard parvoz az in mehnatsaroy.
Bas ki budam dar taassuf az firoqi ruyi u,
Yoftam tarix favtash: "Qutbi olam raft, voy!"*

Mazmuni: Ul orif zot darhaqiqat asrning peshvosi edi. U doimo tariqat yo'lidan yurdi va dil egalari uchun rahnamo edi. Muharram oyining 21-kuni, shanba, choshgohda u olamdan o'tdi. Uning yo'qotilishi menga nihoyatda og'ir bo'ldi. Vafotining tarixi "Qutbi olam raft, voy!" iborasidan topildi. Nurga to'liq, fayzosor ul marja'ul kibor mozori Dahbed qishlog'idadir; u yer Samarqand viloyatidan qariyb bir farsax masofadadir⁸.

Ko'rinib turibdiki, Hazrat Mahdumi A'zamning mozori Samarqanddagi Dahbed mavzeida joylashgan. Bugungi kunda bu yer obod ziyoratgoh bo'lib, ulkan jome' masjidi namozxonlar ixtiyoriga berilgan. Bu jome' Amir Yalangtosh Bahodir tomonidan 1618-yilda qurilgan. Dahbeddagi mozor-da avliyolar qatori hukmdorlar – jumladan, Amir Yalangtosh Bahodir, Amir Sultonquli, Malika Iqlimabonu, shuningdek, Afg'oniston podshohlari Shoh Hidayat ibn Shoh Qosim va Shoh Saodatlar ham dafn etilgan.

K. Kattaevning "Tuhfat ul-xoniy" asaridagi ma'lumotlarga asosanib yozilishicha, Buxoroda mangitlar sulolasining asoschisi Muhammad Rahimxonning taxtga o'tirish marosimiga eng avvalo Mahdumi A'zam, Sayid Ato, Xoja Islom Jo'yboriy va Xoja Ahrorning avlodlari taklif etilgan. Buxoro amirligining oliy-diniy lavozimlari quyidagicha taqsimlangan:

"O'rini shohnishini", ya'ni oliy diniy lavozimiga Mahdumi A'zam avlodlaridan Isoxo'ja tayinlangan;

- shayxulislom lavozimiga Xoja Islom Jo'yboriy avlodlaridan Nasrulloxo'ja;
- naqiblik lavozimiga Sayid Ato avlodlaridan Muhammadxo'ja;
- qozikalonlik lavozimiga Mirakon urug'idan Nizomiddinxo'ja;

Samarqand shahri va viloyati shayxulislomi lavozimiga Xoja Ahror Valiy avlodlaridan Shahobiddinxo'ja tayinlangan.⁹

O'sha davr odatlaridan biri shuki, hukmdorlar farzand ko'rsa, chaqaloqni Mahdumi A'zam avlodlari huzuriga yuborib, unga ism qo'yishlarini so'rardi. Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asarida yozilishicha, Buxoro xoni Iskandarxon o'g'li Abdullaxon (1583–1598-yillar hukmronlik qilgan)ning ismini Hazrat Mahdumi

4 Kattaев К. Махдumi Аъзам тарихи ва мукаммал даҳбедийлар тариқати. Тошкент, Машхур-пресс, 2016. –Б. 27.

5 Сухарква О.А. Квартальная община позднефеодалного города Бухары. Москва, Наука, 1976. –С. 94.

6 "Қутби олам рафт, вой!" жумласидан абжад ҳисоби билан 949 йил чиқади, бу милодий 1542 йилга тўғри келади.

7 Абу Тоҳирхожа. Самария. Мерос туркумида. Тошкент, Камалак, 1991. –Б. 56.

8 Шарафиддин Роқимий. Тарихи томм, Тошкент, Маънавият, 1998. –Б. 95.

9 Кattaев К. Махдumi Аъзам тарихи ва мукаммал даҳбедийлар тариқати. Тошкент, Машхур-пресс, 2016. –Б. 29.



A'zam qo'yganlar. Nomi qo'yilgan paytda: "Bu kelajakda ulug' podshoh bo'ladi, uning qobiliyati buyukdur. Bu taxtga o'tirganda hokimiyati kuchayadi!" – deb karomat qilganlar. Darhaqiqat, shayboniylar ichida eng qobiliyatlisi Abdullaxon bo'lgan¹⁰. "Tarixi Muqimiy" asarida keltirilishicha, Buxoro podshohi Subhonqulixon (1680–1702-yillar hukmronlik qilgan) o'g'il ko'rganida unga nom qo'yish uchun Nosiriddinxo'ja ibn Abulg'afforxo'ja ibn Siloxxo'ja ibn Xoja Kalonxo'ja ibn Mahdumi A'zam qaddasa sirruhhu huzuriga yuboradi. Ul zot Qur'oni Karim sahifalarini ochib, undagi: "Robbi ja'alni muqim ac-salota va min zurriyyati" (Parvardigor, meni va zurriyotimni namozxon qill) oyatini ko'rib, chaqaloqqa Muqimxon deb ism qo'yadilar. Keyinchalik Balxda hokim bo'lgan Muqimxon (1697–1704) tarixda yaxshi iz qoldirgan¹¹. Ko'rinib turibdiki, Mahdumi A'zam va ul zotning farzandlari, nevaralari, shogirdlari ham buyuk shaxslar bo'lgan.

Hazrat Xoja Hoshim (vaf. 1635) Naqshbandiya tariqatining buyuk pir-murshidi, ulug' valiulloh, sohibkaromat zot, atoqli tarbiyachi va alloma bo'lgan. Ma'lumki, qutbi zamon – buyuk valiulloh Hazrat Mahdumi A'zam Dahbediyning o'g'illari Muhammad Aminxo'ja (Xoja Kalonxo'ja) edilar. Xoja Kalonxo'janing (1517–1596) o'g'illari Hazrat Xoja Hoshimdir. Xoja Kalonning Xoja Hoshimdan tashqari yana Solihxo'ja Balxda faoliyat yuritgan bo'lsa, Muhammad Yusufxo'ja Sharqiy Turkistonda faoliyat ko'rsatib, xalqni hidoyatga boshlagan.

"Tarixi Muqimxoniy" kitoblarida yozilishicha, ashtarxoni Vali Muhammad Buxoro taxtidan ag'darilgandan so'ng Eron hukmdori Shoh Abbos huzuriga borib, undan yordam so'raydi. Vali Muhammad 80 ming eronlik qizilbosh bilan Buxoro ustiga bostirib keladi. Buxoro xoni Imomqulixon nochor qolib, Hazrat Xoja Hoshimga murojaat qiladi. Hazrat Xoja Hoshim Imomqulixoniga dalda berib, uning haqi-ga duo qiladilar. Mana shu duoning barakotidan Imomqulixon ushbu jangda g'alaba qozonadi. Natijada Vali Muhammad asir tushib, qatl etiladi, qizilboshlar mag'lub bo'lib, ko'plari qiriladi¹².

Ushbu voqealar bayoni tarixchi Muhammad Mirzo Salimning "Kushkuli Salimiy" asarida quyidagicha keltiriladi: "Imomqulixon Allohning karami va marhamatiga tayanib, daryodan o'tib Buxoroga kelib podshoh bo'ldi. Valimuhammadxon umarolarning muxolifatidan cho'chib, yarim kechada chiqib Eron tomonga yo'l oldi. Shoh Abbos uning oldiga kelganida e'zozladi va sakson ming qizilboshni unga hamroh qilib, Buxoroga Imomqulixoniga qarshi jangga yubordi. 1017/1608-yilda qizilboshlar Hazrat Xoja Hoshim (alayhirahmatullohi a'lo) qutbi, ya'ni Taliya¹³ qasabasida shikast yedilar, hammasi shamshir domidan o'tkazildi. Valimuhammadxon asir olinib, qatl etildi"¹⁴.

Shuni ham ta'kidlash joizki, Hazrat Xoja Hoshimga Buxoro xoni Imomqulixon, Samarqand hukmdori Yalangtosh Bahodirxon va boshqa podshohlar murid bo'lgan. Hazratning maslahatlariga muvofiq ish tutganlar. Komilxon Kattaevning tadqiqotlarida keltirilishicha, Dahbediy Xojalar tabaqasini va Dahbed mavzeining shuhratini Mahdumi A'zamdin keyin oshirgan shaxs ham aynan Xoja Hoshimdir. Ul zotning ulug'ligini shundan ham bilish mumkinki, qabri oyog'i tomonida Afg'oniston podshohlaridan Shoh Hidayat ibn Shoh Qosim, Shoh Saodat (XVII-asr hukmdorlari), Samarqand hukmdorlari Amir Yalangtosh Bahodir, Amir Sultonquli va Malika Iqlimabonu kabi shaxslar dafn etilgan. Go'ri Amir maqbarasini hisobga olmaganda, Dahbeddan boshqa biror joyda bir pirning oyoq ostida bunaqa ko'p hukmdorlar yotmagan¹⁵.

Manbalarda keltirilishicha, Hazrat Xoja Hoshimning hohish-irodasiga ko'ra Samarqand taxtiga Yalangtosh Bahodir hokim qilib ko'tariladi va shahardagi obodonchilik hamda qurilish ishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. K. Kattaevning ushbu tariqat piri xususida olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijasida bir qancha muhim dalillar va ilmiy yangiliklar aniqlangan. Xususan, Samarqanddagi Sherdor madrasasining Yalangtosh Bahodir tomonidan piri Xoja Hoshim sharafiga qurilganligi haqida qasida mavjud bo'lgani, va bu qasida yozilgan marmar toshning topilishida olimning alohida xizmat qilganligi qayd etiladi. Uning aytishicha, bir vaqtlar "Sharq taronalari festivali" uchun Registon maydoni sahnalashtirilganda, ushbu sahna ostida qolib ketgan, devorga qadimiy mixlar bilan teskari birlashtirilgan taxminan 1 tonna og'irlikdagi katta marmartosh olinadi va undagi yozuvlar o'rganiladi. Ko'p joylari o'chib ketgan bo'lsa-da, yozuvlarni o'qishga muvaffaq bo'linadi. U yozuvlarda Yalangtosh Bahodir tomonidan piri Xoja Hoshim Dahbediyga atalgan 24 qatorlik tarixiy qasida borligi aniqlangan¹⁶.

Manbalarda yozilishicha, Hazrat Xoja Hoshim 1635-yilda vafot etgan. Samarqand hukmdori Yalangtosh Bahodir piri vafoti munosabati bilan yurt bo'ylab motam e'lon qiladi va jasadini Sherdor madrasasi sathida dafn etish haqida farmon chiqaradi, biroq ba'zi sabablarga ko'ra Hazrat Xoja Hoshim bobosi Mahdumi A'zam xonaqohiga dafn etiladi.

10 Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулломо. Шарафномаи шохи. Т.Фан, 1966. –Б.156-157.

11 Мухаммад Юсуф Мунши. Муким-ханская история. Перевод с таджикского, предисловие, премичания и указатели А.А.Семенов. Ташкент.: издательство Академии наук Узбекской ССР, 1956. - с. 164.

12 Мухаммад Юсуф Мунши. Муким-ханская история. Перевод с таджикского, предисловие, премичания и указатели А.А.Семенов. Ташкент.: издательство Академии наук Узбекской ССР, 1956. – С. 14..

13 Талижа тепмилги ва қасабаси (қишлоғи) Талипоч дарвозаси ташқарнисда, бу ерда Ҳазрат Хожа Хошим қабри жойлашган..

14 Мирзо Салимбек. Кашкули Салимий тавориҳи муттақаддимин ва маттаахирин. Форсчадан Н.Йўлдошев таржимаси. Бухоро, 2003. –Б. 276.

15 Каттаев К. Маҳдуми Аъзам тарихи ва мукаммал даҳбедийлар тариқати. Тошкент, Машхур-пресс, 2016. –Б. 93.

16 Каттаев К. Маҳдуми Аъзам тарихи ва мукаммал даҳбедийлар тариқати. Тошкент, Машхур-пресс, 2016. –Б. 98-99.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shayboniylar va ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davrida Naqshbandiya tariqatining ko'plab vakillari hukmdorlar yonida turib, har qanday ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etganliklari o'sha davr manbalarida ham alohida ta'kidlab o'tilgan. Jumladan, Abdulazizxon (1645–1685) va Subhonqulixon (1681–1701) davri ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlari tasvirlangan Muhammad Amin Buxoriyning "Muhit at-Tavorix" asarida o'nlab tasavvuf ulamolari nomlari hamda ular bilan bog'liq turli voqealar aks ettiriladi. Masalan, 1681-yilning sentyabr oyida Buxoroga yurish qilgan Xiva xoni Anushaxon (1663–1687) bilan Abdulazizxon o'rtasidagi kurashda Abdulazizxon yonida turib, unga tirkak bo'lgan ulamolar nomlari keltirib o'tiladi¹⁷.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Қапан: Naqshbandiya tariqatiga oid qo'lyozmalar fihristi. Toshkent, 1993. – B. 45–59.
2. Nasir ad-Din al-Hanafi al-Hasani al-Buxari. Tuhfat az-Zoirin ("Podarok palomnikam"). Tarjima, so'zboshi va izohlar muallifi: Xalim Turaev. Toshkent: "Splendid Idea", 2021. – S. 83.
3. Hasanxo'ja Nisoriy. Muzakkiri ahhob. Toshkent: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. – B. 23.
4. Kattaev K. Mahdumi A'zam tarixi va mukammal dahbediylar tariqati. Toshkent: Mashhur-press, 2016. – B. 27.
5. Suxareva O. A. Kvartal'naya obshchina pozdnefeodal'nogo goroda Buxary. Moskva: Nauka, 1976. – S. 94.
6. "Qutbi olam raft, voy!" jumlasidan abjad hisobi bilan 949-yil chiqadi, bu milodiy 1542-yilga to'g'ri keladi.
7. Abu Tohirxoja. Samariya. Meros turkumida. Toshkent: Kamalak, 1991. – B. 56.
8. Sharafiddin Roqimiy. Tarixi tomm. Toshkent: Ma'naviyat, 1998. – B. 95.
9. Kattaev K. Mahdumi A'zam tarixi va mukammal dahbediylar tariqati. Toshkent: Mashhur-press, 2016. – B. 29.
10. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. Sharafnomayi shohiy. Toshkent: Fan, 1966. – B. 156–157.
11. Muhammad Yusuf Munshiy. Mukim-xanskaya istoriya. Tarjima va izohlar: A. A. Semyonov. Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1956. – S. 164.

17 Мухаммад Амин Бухорий. Мухит ат-таворих. Тарижима ва изоҳлар муаллифи Д.Юсупова, У.Ҳамроевлар. Тошкент, ФАН, 2020. –Б.44-45.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.